



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

**10.00.01 – O‘ZBEK TILI IXTISOSLIGI BO‘YICHA TAYANCH
DOKTORANTURAGA KIRISH SINOVлари UCHUN MUTAXASSISLIK
FANLARIDAN**

DASTUR VA BAHOLASH MEZONI

Samarqand – 2026

Annotatsiya:

Dastur 10.00.01 – O‘zbek tili ixtisosligiga kiruvchilar uchun 70230101 – Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligining 2023-yilda tasdiqlangan o‘quv rejasidagi asosiy fanlar asosida tuzildi.

Tuzuvchilar:

Karimov S.A.	–	SamDU, O‘zbek tilshunosligi kafedrası professori, filologiya fanlari doktori
Turdimurodov U.S.	–	SamDU, O‘zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Dastur Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati institutining 2026-yil 26-avgustdagi 1-sonli Kengash yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KIRISH

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-sonli "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi Farmonida o'zbek tilining nufuzini yanada yuksaltirish, o'zbek tilshunosligini yangi bosqichga olib chiqish, globallashuv sharoitida o'zbek tilidan foydalanish ko'lamini kengaytirish va o'zbek tili ixtisosligi bo'yicha yangi avlod kadrlarini tayyorlash, o'zbek tili va adabiyoti muammolarini tadqiq etishni yangi bosqichga ko'tarish vazifasi qo'yilgan. Har bir fanning o'qitish, o'rganish va tadqiq etish metodologiyasi bo'lishi ta'kidlangan.

10.00.01 – O'zbek tili ixtisosligining vazifasi o'zbek tilini chuqur ilmiy tadqiq qilish, tilning barcha sathlari bo'yicha tadqiqotlar yaratish, zamonaviy tilshunoslik paradigmalarini asosida ona tilimizning milliy xususiyatlarini yoritish va uning nufuzini oshirishdan iborat.

10.00.01 – O'zbek tili ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kiruvchi da'vogarlar uchun 70230101 – Lingvistika (o'zbek tili) magistratura mutaxassisligining 2023-yilda tasdiqlangan o'quv rejasiga asosan 5 ta ixtisoslik fanlari bo'yicha: "Pragmalingvistika", "Psixolingvistika", "Lingvokulturologiya", "Matn tilshunosligi" va "Nazariy tilshunoslik masalalari" fanlaridan savollar bazasi shakllantirilgan.

Bu fanlar o'z negizida qamrab olingan ma'lumotlar quyida batafsil keltirilgan.

Pragmalingvistika fani bo'yicha:

Pragmalingvistika fanining predmeti va tadqiqot obyekti. Axborot uzatish va qabul qilish. Kommunikativ harakatlar. Kommunikativ - pragmatik yo'nalishning shakllanishi. Tilning ichki shakli. Pragmalingvistik tahlil. Pragmalingvistik tadqiqot. Pragmalingvistika tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida. Pragmalingvistikaning metodologik negizi. Pragmalingvistikaning predmeti. Semantik va pragmatik pressupozitsiya. Pragmatik pressupozitsiyaning matnga xosligi. Eksplikatura. Implikatura. Sotsiopragmatik tahlil asoslari. Hurmat tamoyili muloqot kechishini ta'minlovchi asosiy manba. J.Lichning hurmat tamoyilining qoidalari xususida. Sotsiopragmatikada hurmat kategoriyasi. Muloqot sistemasi. Muloqot strukturasi. Kommunikativ mazmun. Informativ mazmun. Yaxlitlik va tugallanganlik. Uning geterogen sistema ekanligi. Geterogen sistema har doim jonli sistema sifatida amal qilishi. Shaxs unsuri. Vaziyat unsuri. Lisoniy unsur. Sistemadagi unsurlarning muvofiqlashuvi. Matn. Matnning lisoniy-nutqiy sistema ekanligi. Diskurs lisoniy, shaxsiy va vaziyat omili muvofiqlashgan sistema ekanligi. Diskursning turlari. Diskursning tasnifi. Diskursiv tahlil tarixi. Nutqiy vaziyat. Qulay vaziyat. Noqulay vaziyat. Erkin vaziyat. Rasmiy vaziyat. Vaziyat va

lison. Vaziyat va nutq. Nutq samarasi va vaziyat muvofiqligi. Lisoniy birliklarning nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi. Vaziyat omilining nutqiy omillarga hamkorligi. Lisoniy umumiy ma'noning nutqiy xoslanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi. Hamkorlikda muvofiqlashuv. Omilning ustuvorlashuvi va pasayishi. Shaxs va lison. Shaxs va nutq. Shaxs va vaziyat. Shaxs va shaxs. Lisoniy kompetensiya. Madaniy kompetensiya. Pragmatik kompetensiya. Kommunikatsiya. Kommunikativ intensiya. Intensiya ifodasi. Intensiya mo'ljali. Intensiyaning ifodalovchi fe'llarning kuchi va intensivligiga ko'ra turlari. Lokutiv fe'llar. Prelokutiv fe'llar. Illokutiv fe'llar. Ona tili ta'limining bosh maqsadi. Ona tilidan amaliy foydalanish samaradorligi vazifasi. Til qurilishi va til ta'limi. Til imkoniyati va til ta'limi. Til faoliyat samarasini ta'minlovchi kuch sifatida. Gapning kommunikativ kategoriyasi. Aktual bo'linish.

Psixolingvistika fani bo'yicha:

Psixolingvistikaning obyekti va predmeti. Psixolingvistikaning o'ziga xos xususiyatlari: inson omili, vaziyat omili, eksperiment tamoyili. Tushunchaviy terminologik apparati. Psixolingvistika psixologik fan sifatida. Psixolingvistika va tilshunoslik. Individ va kommunikatsiya. Psixolingvistikaning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Psixolingvistikaning psixologik va lingvistik manbalari. Dastlabki psixolingvistik g'oyalar. V.Fon Gumboldning antinomiya. "Yosh grammatikachilar" nazariyasi: individual psixologiya. "Yosh grammatikachilar" nazariyasining inqirozi. Psixolingvistikaning mustaqil fan sifatida shakllanishi. L.S.Vigotskiy – psixolingvistikaning asoschilaridan biri. Ichki nutq haqidagi ta'limot. Charlz Osgudning kommunikatsiya modeli. Inson kommunikatsiyasiga lingvistikadan yondashish. Inson kommunikatsiyasiga psixologiyadan yondashish. Inson kommunikatsiyasiga informatsiya nazariyasidan yondashish. Inson kommunikatsiyasining sxemasi. Bixeviorizm, neobixeviorizm. Stimul (S) va reaksiya (R). Assotsiativ munosabatlar. Noam Xomskiyning transformatsion-generativ grammatikasi. Transformatsion modelning birinchi varianti, uning umumiy strukturasi va xususiyatlari. Transformatsion modelning tabiiy til ifodalarini avtomatik sxemalarga solishdagi ahamiyati. Transformatsion modelning ikkinchi varianti. Undagi "botiniy" struktura va "zohiriy" struktura tushunchalari. N.Xomskiyning competence (lisoniy qobiliyat) va performance (lisoniy faollik) tushunchalari. Jorj Miller ta'limotining asosiy xususiyatlari. J.Millerning kommunikatsiya modeli. "Nutqiy faoliyat" tushunchasi. Nutqiy faoliyatning tuzilishi. Nutqiy faoliyatning psixologik mexanizmi. Nutqiy faoliyat turlari. Verbal va noverbal tafakkur. Nutqiy faoliyatning predmetlik (psixologik) mohiyati. Nutqiy faoliyatda til va nutqning funksiyalari. Nutq yaratilishining psixolingvistik talqini. Nutq – faoliyat. Faoliyatning yetakchi va yordamchi turlari. L.S.Vigotskiy modeli. Tafakkur va nutq. Ong tuzilishining sistemliligi. Fikrdan ma'noga,

ma'nodan so'zga. Ichki so'z. A.R.Luriya modeli. Ifodaning dinamik sxemasi. Nutqning yaratilishidagi uch bosqich: 1. Semantik bosqich. Matnning temasi va remasi. 2. Ichki nutq. 3. Yoyiq nutqiy ifodalarning shakllanishi. A.A.Leontev modeli. Ifodaning grammatik-semantik tomonlarini dasturlash. Ifodaning grammatik realizatsiyasi va so'z tanlash. Sintagmalarni motorli dasturlash. Matnni qabul qilish (matnni tushunish). Matn mazmunini chiqarib olish. Nutqiy yoki jismoniy javob qaytarish. Murojaatni e'tiborga olib qo'yish. Xabar-1ni xabar-2 ga mos kelmasligi. Matnni yaratish va tushunishda samaradorlik, tejamkorlik va ishonchlilik tamoyillari. Tabiatdagi hayvonlar tili. Maugli bolalar. Tilni o'zlashtirish (nutq ontogenezi) haqidagi qarashlar. Til qobiliyati. Til bilimi va tilni qo'llash o'rtasidagi aloqa. Bolalar nutqining o'ziga xos xususiyatlari. Bolalar nutqida protosemantik belgilarning shakllanishi. Bolalar nutqida semantik bosqich. Bolalarning so'z yasash malakasini egallashi. Bolalar nutqining shakllanishida kattalar nutqining ahamiyati. Bolalar nutqiy va intellektual faoliyatining shakllanishida ijtimoiylashishning asosiy jihatlaridan biri ekanligi. Bolalar nutqidagi xatoliklar. Eksperiment metodlar. Eksperiment turlari. Fonetika, semantika doirasidagi eksperimental ishlar. Assotsiatsiyaning paradigmatic va sintagmatic ko'rinishlari. Assotsiativ eksperiment va uning turlari. Erkin assotsiativ eksperiment. Yo'naltirilgan assotsiativ eksperiment. Zanjirli assotsiativ eksperiment. Assotsiativ me'yorlar lug'atlarining yaratilishi. So'zlar va so'z guruhlarini eksperiment asosida o'rganish. Gap va matnning eksperimental tadqiqi. Psixolingvistikadagi transformatsion yo'nalish vakillarining perifriza ustida olib borgan tajribalari. Matn ma'noviy strukturasi tadqiq qilishda "tayanch so'zlar" majmuyi metodikasining afzalligi. Tergov jarayonida nutq informatsiya manbasi sifatida. Yolg'on fikr ifodalash psixolingvistikasi. Psixolingvistik ekspertiza. Matnning atributsiyasi. Til va madaniyat. So'zning milliy-madaniy xususiyatlari. Noverbal nutqning milliy-madaniy xususiyatlari. Lakunalar. Nutqiy muoamala. Bilingvizm va uning turlari. Chet tilini o'rganishdagi xatoliklar. Xorijliklar nutqi. Madaniy shok. Lingvistik shok. Madaniyatlararo muloqot. Nutq patologiyasi va uning psixolingvistik usullar asosida o'rganilishi. Nutq patologiyasini asosiy ko'rinishlari. Afaziyaning o'rganilish tarixi. Afaziya va uning turlari. Total afaziya. Qisman afaziya. Motor afaziya. Sensor afaziya. Akustik afaziya. Semantik afaziya. Telegraf usuli. Alaliya va uning ko'rinishlari. Sensor alaliya. Motor alaliya. Sensomotor alaliya. Nutqning fiziologik markazlari. Broka markazi. Vernike zonasi. Shizofreniyada nutq tashkil qilishning xususiyatlari. Ijtimoiy psixolingvistikaning predmeti va vazifalari. Lisoniy shaxs strukturasi. Olamning lisoniy manzarasi. Geshtaltlar va belgilar. Bilingvizmning mohiyati. Bilingvizm turlari. Interferensiya. "Lakuna" tushunchasi. Lakunalarning turlari. Ijtimoiy-madaniy lakunalar. Lakunalarni bartaraf qilish yo'llari.

Lingvokulturologiya fani bo'yicha:

Lingvokulturologiyaning tadqiqot obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari. Lingvokulturologiyaning asosiy tushunchaviy-terminologik apparati va ularning yuzaga kelishi. Lingvokulturologiya metodologiyasi va metodlari. Antroposentrik paradigma va uning lingvokulturologiyadagi o'rni. Til va inson, ularning o'zaro aloqasi. Madaniy antropologiya va lingvokulturologiya, ularning o'zaro aloqasi. Jamiyatda inson, til va madaniyatning o'rni. Madaniyat va uning o'rganilishi, jumladan, lingvokulturologiyaning vujudga kelishi. Frazologizmlarning lingvomadaniy jihatlari. O'xshatishlar – obrazli madaniy tafakkur mahsuli. Metafora – madaniyatning ko'rsatkichi. Ramz – inson ruhi madaniyatining tili. Milliy madaniyatning stereotiplari. Lingvomadaniyatda lakuna muoammosi. Insoniy til va madaniyat. Til va etnos (inson)ning o'zaro aloqasi, nutq madaniyati masalalari. Madaniyatshunoslik va lingvokulturologiya tushunchalarining o'zaro aloqasi, ularning boshqa fanlar orasidagi maqomi. Paradigmalarning qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur va antroposentrik turlari. Milliy mentalitet va lisoniy shaxs.

Matn tilshunosligi fani bo'yicha:

Matn tilshunosligi fanining predmeti va tadqiqot obyekti, maqsad, vazifalari, nazariy-metodologik asoslari, manbalari. Matn va uning tilshunoslikda o'rganilish tarixi. Jahon tilshunosligida matn kategoriyasining o'rganilishi; Chex tilshunosligida, nemis, polyak matn lingvistikasi muammolari; Rus tilshunosligida matn lingvistikasi fanining paydo bo'lishi; Matn turlari va uni o'rganish muammolari. O'zbek tilshunosligida matn va uni o'rganish muammolari. Matn atamasi va uning mazmun ifodasi; matnning murakkabligi va hajmi, kommunikativ vazifasi, muayyan janr talablariga mosligi hamda matn qismlarining xarakteri masalalari haqida o'zbek tilshunoslarining qarashlari; o'zbek tilshunosligida matn nazariyasining kirib kelishi. Matn tilshunosligida nutq derivatsiyasi muammolarini o'rganish. Nutq va nutqiy faoliyat haqida F.de Sossyur ta'limoti. XX asrning 50-yillarida nutq lingvistikasiga e'tibor. V.Skalichka, E.Koseriunung fikrlari. Nutq derivatsiyasi va uning matnni shakllantirish masalasidagi nuqsonlar. Matn tarkibida so'z birikmasi sintaktik derivatsiya jarayondagi o'rni. Matnda sintaktik aloqani ta'minlovchi leksik vositalar. Matn komponentlarining o'zaro sintaktik bog'lanishidagi omillar (leksik takror; sinonimik munosabat; olmoshlar; kirish so'z va birikmalar; bog'lovchilar). Matn komponentlarining semantik va pragmatik munosabatlari. Tilshunoslikda semantik munosabatlarning turi (radikal va to'g'ridan-to'g'ri munosabat). Til bilan mantiqning o'zaro bog'liqligi va A.A.Potebnyaning fikri. Matn va murakkab sintaktik qurilmaning o'zaro munosabati. Matn va uning tarkibiy qismlari. Gap, qo'shma gap, murakkab qurilmali gaplar, period, abzats tushunchalari. Matn birliklarini kengaytirish

usullari. Matn tarkibidagi birliklarning bir-biriga munosabati. Matn tarkibida noodatiy birikmalarning grammatik strukturasi. Soʻz birikmalari va ularning turlari, undagi tobe-hokim boʻlaklarning munosabati formasi; bu munosabat formasi noodatiy soʻz birikmalarning shakllanish jarayoniga, yaʼni tobe-hokim boʻlaklarning munosabati formasiga mos kelishi va farqlari; noodatiy birikmalarning grammatik jihatdan oʻziga xos xususiyatlari. Rus tilshunosi P.A.Lekantning noodatiy birikmalar haqidagi fikri. Matn komponentlarining pogʻonali munosabati. Matn komponentlariaro semantik va grammatik munosabatlar. Matn komponentlarining pogʻonali munosabati, matn komponentlari oʻrtasidagi semantik va grammatik munosabatlarning turi va ularning yuzaga chiqishi. Matn tarkibida ichki va tashqi sintagmatik munosabatlar. Matn tarkibida funksional pragmatik munosabatlar. Matnda modallikning ifodalanishi. Matnda sintagmatik munosabatning namoyon boʻlishi, ichki va tashqi sintagmatik munosabat, matnning pragmatik xususiyatlari, matnda modallik yuzaga chiqishi. Matn va uslub munosabati. Matnning funksional tasnifi masalalari. Matnning jonli soʻzlashuv uslubiga munosabati. Adabiy nutq uslublari va ularning matnga munosabati. Rasmiy, ilmiy, publisistik matnlar tuzish koʻnikmalarini shakllantirish masalalari. Olmoshlarning deytik xususiyatlari, gumon olmoshlarining semantik xususiyatlari, gumon olmoshlarining badiiy matndagi funksional-uslubiy xususiyatlari. Matnda jamlovchi olmoshlarning ayrim funksional-uslubiy xususiyatlari. Badiiy matn va uning shakllantiruvchi vositalar. Badiiy matnning koʻrinishlari, ularning umumiy va farqli belgilari, badiiy matnda individual soʻz qoʻllash meʼyorlari. Badiiy matnlarda laqablarning ayrim uslubiy xususiyatlari haqida. Badiiy matnda laqablarning qoʻllanilishi va bundagi maqsad, laqablarning funksional-uslubiy, pragmatik xususiyatlari, badiiy matnni tahlil va tahrir qilish muammolari. Oʻzbek tilining badiiy tasvir vositalari va ularning matn turlari tarkibidagi ishtiroki masalalari. Badiiy tasvir vositalaridan foydalanishda meʼyor masalalari. Oʻzbek badiiy matnida metafora, epitet va oʻxshatish tasviriy vositalarining qoʻllanishi. Matn tilshunosligida kognitiv va pragmatik imkoniyatlardan foydalanish. Kognitiv, konsept, ssenariy, skript, freym, geshtalt, pragmatika” tushunchalarining maʼno-mohiyati va ularning matn bilan aloqadorligi.

Nazariy tilshunoslik masalalari fani boʻyicha:

Nazariy tilshunoslik fani, uning predmeti, maqsad va vazifalari. Tilshunoslik sohasining nazariy mavzularini yoritish, fan doirasida oʻrganiladigan asosiy masalalarning mazmun mundarijasini belgilash, nazariy tilshunoslikning muhim xususiyatlari borasida tasavvur hosil qilish, asosiy lingvistik hodisalar, jarayonlar, til birliklari, til birliklarining tizim sifatidagi qurilishi haqida maʼlumot keltirish, til mohiyatini nazariy muammolar asosida tahlil qilish. Tilshunoslik fani taraqqiyoti

tarixidan. Tilshunoslik fanining shakllanish bosqichlari, ilmiy faoliyat turi sifatida falsafa fanidan ajralib chiqqanligi, umumlingvistik muammolar, bu muammolarning tilshunoslik maktablari o'rganilishi haqida ma'lumot berish. Asosiy lingvistik konsepsiyalar. Tilshunoslikka oid turli nazariyalar, lingvistik konsepsiyalar, jumladan Vilgelem fon Gumboldt, Ferdinand de Sossur, Sharl Balli, R.Yakobson, Yakob Grimm kabi olimlarning ta'limotlari. Tilshunoslik va semiotika. Lingvistik belgilar va lingvistik belgi tuzilishi. Tabiiy, sun'iy, shartli va infotmativ belgilar. Motivatsiya. Tilshunoslikning semiotikadagi o'rni. Belgilar tasnifi. Til bilan boshqa belgilar tizimining o'xshashlik va farqli jihatlari. Tilning belgili va belgisiz xususiyatlari. Axborot va signal tushunchasi. Tilshunoslikning axborot nazariyasi bilan bog'liqligi. Til strukturasi. Sutruktura va sistemaning bog'liq jihatlari, biroq ularning bir hodisa emasligi, farqli tomonlari hamda bu haqida olimlarning fikrlari. Til tizimining sathlardan iborat bo'lishi. O'zaro bog'liq va shartlangan ikki va undan ortiq elementning munosabatidan tashkil topgan va yangi sifatga ega bo'lgan barqaror butunlikning tizim sanalishi. Til birliklari voqelanish belgisiga ko'ra ham, ontologik (tuzilish) tabiatiga ko'ra ham tizim ekanligi. Fonologiya. Fonema, tonema, aksentema va hk. Fonologiya maktablari. Fonologik tizim, fonologik oppozitsiyalar, fakultativ va individual variantlar, Boduen de Kurtene, L.V.Shcherba, N.S.Trubeskoylarning fonologik qarashlari. Semasiologiya. Leksik ma'noning semantik tarkibi. Sema tushunchasi. So'z va leksemaning farqlanishi. Leksema semema va nomemalarning o'zaro munosabatidan tashkil topganligi, mazmuniy mundariyasi esa atash, ifoda va vazifaviy semalar munosabatidan iborat bo'lishi. Har qanday leksema atash semasining ishtirok etishi. Ifoda va vazifaviy semalar chegara semalar ekanligi. Morfosentrik nazariya. So'zlarni turkumlarga ajratish tamoyillari. Morfologiyaning so'z shakllari haqidagi ta'limot ekanligi. So'z shaklning grammatik paradigma ichida qaralishi va zidlik munosabatida bo'lishi. Zidlanishlar paradigma a'zolarining yashash va rivojlanish asosi ekanligi. Morfologiyada morfema va uning varianti tushunchasi markaziy o'rinni egallashligi. Nazariy grammatika tizimida sintaksis. Gap va uning belgilari. Gapda shakl va mazmun. Gap bo'laklari iyerarxiyasi. Sintaktik sathning so'z birikmasi va gapdan iboratligi. Gap modelining so'z birikmasi modelidan farqlanishi. Sintaksisning asosiy birligi gap ekanligi. Gap fikrni shakllantirish, ifodalash va bayon qilishning asosiy vositasi, muayyan tilning qonun-qoidalari asosida shakllangan sintaktik birligi ekanligi. Gap sintaksisning asosiy birligi sifatida. Gapning grammatik kategoriyalari. Gapning kommunikativ kategoriyasi. Aktual bo'linish. Til birliklari orasidagi paradigmatic, sintagmatik, iyerarxik munosabatlar. Ketma-ket tartibda birikishdagi munosabatlar, kombinatorlik munosabatlari, assotsiativ yoki paradigmatic munosabatlar, birliklarning ayrim xususiyatlari umumiyligi yoki o'xshashligi asosida muayyan

guruhlarga bo'linishi, "yaxlitlik va bo'lak" o'rtasidagi munosabat. Bilish yo'llari. Bilishning dialektik metodi. Umumiy va xususiy bilish yo'llari. Ilmiy metodlarning paydo bo'lishi. Bilishning dialektik metodi. Umumiy va xususiy bilish yo'llari, paydo bo'lishi, fan tushunchasi, bilish bosqichlari, fahmiy bilish va nazariy bilish. Fanlar tizimi va bu tizimda tilshunoslikning tutgan o'rni. Tilshunoslikning ijtimoiy, tabiiy va aniq fanlarga munosabati. Lingvistik tahlil metodlari va bu metodlarning o'ziga xos jihatlari. Tavsifiy metod. Qiyosiy metod. Qiyosiy-tarixiy, chog'ishtirma va tipologik metodlar. Zamonaviy tahlil metodlari. Bevosita ishtirokchilarga ajratish metodi. Differensial tahlil metodi. Komponent tahlil metodi. Transformatsiyalash (aylantirish) metodi. Matematik tilshunoslik. Matematik metodlarni tilshunoslikka tatbiq etish. Statistik tahlil metodi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. I жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 592 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 22 б.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktabrdagi PQ-308-son "Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.
5. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. Учебное пособие. – М.: Флинта, Наука, 2010. – 288 с.
6. Bushuy T., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007. – 152 б.
7. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981. – 140 с.
8. Глухов В.П., Ковшиков В.А. Психолингвистика. Теория речевой деятельности: АСТ, Астрель; – Москва; 2007 ISBN 5-17-040766-1, 5-271-15287
9. Глухов В.П. Основы психолингвистики: учеб. пособие для студентов педвузов. – М.: АСТ: Астрель, 2005. – 351, [1] с, -(Высшая школа).
10. Fyodorova O.V. Osnovy eksperimentalnoy psixolingvistiki. Uchebnoe posobiye. – М.: Sputnik, 2008.
11. Frumkina R.M. Psixolingvistika. – М., 2001. -320 с.
12. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Т., 2007. -123 б.
13. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Т.: Фан, 2008. – 159 б.
14. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лисоний таҳлили. – Т., Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010. – 112 б.
15. Каримов С. Назарий тилшунослик масалалари. Услубий қўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2014. – 104 б.
16. Kurbanova M., Yo'ldoshev M. Matn tilshunosligi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2014.
17. Мамажонов А. Текст лингвистикаси. – Т., 1989.
18. Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – М.: «Академия», 2001.

19. Маҳмудов Н., Худойберганава Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013.
20. Mirtojiev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. – T., 1992.
21. Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси. – Тошкент, 2008.
22. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo‘nalishlari. – Andijon, 2008.
23. Неъматов Ҳ., Ҳамроева Ш. Лингвистик тадқиқот методикаси, методологияси ва методлари. Магистрлар учун қўлланма. – Бухоро, 2004.
24. Пардаев А. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимдаги ўрни ва лингвопрагматик таҳлили. – Тошкент, 2013. – 199 б.
25. Пардаев З. Прагматик лингвистика. Ўқув-услубий қўлланма. – Самарқанд, 2013. – 104 бет.
26. Psixolingvistika. O‘quv-uslubiy majmua. (Namangan davlat universiteti. Tuzuvchi: Boboxonova D.) – Namangan, 2019.
27. Турниёзов Н., Йўлдошев Б. Матн тилшунослиги (маърузалар матни). – Самарқанд: СамДУ нашри, 2005. – 60 б.
28. Турниязов Н. Матн лингвистикаси. – Самарқанд, 2004.
29. Санақулов У. Матн тилшунослиги. Ўқув-услубий мажмуа. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2019. – 157 б.
30. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Тошкент, 2008.
31. Usmonova. Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. O‘zbek tili va adabiyoti universiteti. – Toshkent: 2019.
32. Usmanova Sh. “Psixolingvistika” fanidan ma’ruza kurslari. – Toshkent: Universitet, 2014.
33. Худойберганава Д. Матннинг антропоцентриқ тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013.
34. Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 176 б.

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETINING TAYANCH DOKTORANTURA
IXTISOSLIKLARIGA KIRISH SINOVLARI UCHUN MUTAXASSISLIK
FANLARDAN TALABGORLARNING BILIMLARINI
BAHOLASH MEZONI**

Sinov topshirish shakli	Yozma
Ajratilgan vaqt	120 daqiqa
Savollar soni	5
Har bir savol uchun belgilangan ball	20
Eng yuqori ball	100